



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

O'tkir Utanov<sup>1</sup>

Ismatillo Nabiyeu<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi dotsenti, pedagogika fanlari falsafa doktori

<sup>2</sup> Samarqand shahar 29-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

## MUSIQA FANI O'QITUVCHISINING KASBIY STANDARTLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Annotatsiya.** Pedagogik faoliyat - insonlar mehnatining eng murakkab, ma'suliyatli sohalaridan biridir. O'qituvchi yuqori malakali, g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan etuk, axloqan sof bo'lishi jamiyat talabidir.

**Kalit so'zlar:** pedagogik faoliyat, standart, kasbiy standart, kompetensiya.

Pedagogik faoliyat - insonlar mehnatining eng murakkab, ma'suliyatli sohalaridan biridir. O'qituvchi yuqori malakali, g'oyaviy, ma'naviy, ma'rifiy jihatdan etuk, axloqan sof bo'lishi jamiyat talabidir. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining mazmunida ham umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor berish va bu ishga ijodkorlik bilan yondashish talab etilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi PQ-4963 sonli qarorida asosiy vazifalar sifatida "kelajak maktabi, uning rahbari va o'qituvchisining modelini yaratish asosida xalq ta'limi xodimlarining kasbiy standartlarini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish, ilmiy-tadqiqot faoliyatining ta'lim jarayoni bilan aloqalarini mustahkamlash" belgilab berilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sonli "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'rsida"gi qarorining Umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartining asosiy prinsiplarida;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish kabi vazifalar belgilangan.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va doimiy tarzda rivojlantirib borish bugungi kun talabidir.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayoniga kasbiy standartning joriy etilishi ta'lim tizimining asosini bolalarning turli toifalari (iqtidori, nogiron, etim bolalar va boshqalar) bilan ishlashga qodir bo'lgan va etuk mutaxassislar (defektologlar, psixologlar, turli fanlar o'qituvchilari va boshqalar) va zamonaviy mutaxassislar tayyorlanishiga zamin yaraladi.

Bunda har bir ta'lim turlari bo'yicha kasbiy standart talablari turlicha namoyon bo'ladi;

- maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarining faoliyati.
- boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining faoliyati.
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim o'qituvchilarining faoliyati.
- professional ta'lim o'qituvchilarining faoliyati.
- oliy ta'lim tizimi professor-o'qituvchilarining faoliyati.
- malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim tizimi o'qituvchilarining faoliyati.

Bundan tashqari fan sohalari (matematika, ona tili, kimyo texnologiya, musiqa va h.k lar) bo'yicha o'qitish har bir fanning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib kasbiy standartlari ham turlicha namoyon bo'ladi.

Musiqa madaniyati fani ham yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda, ularda estetik didni rivojlantirishda cheklanmagan imkoniyatlarga ega.

Musiqa madaniyati fani muhim jihati ham shundaki, u eng avvalo his-tuyg'ular bilan bevosita bog'lanadi, qolaversa o'rganilayotgan har bir musiqiy asar yuksak insoniylik va ma'naviy poklikni namoyon etadi.

Musiqa san'ati u bilan shug'ullanuvchilardan yuksak insoniylik, ma'naviy poklik va nihoyatda nozik didni talab etadi. YOshlarni ma'nan barkamol, ruhan tetik qilib tarbiyalashda musiqiy nafosat olamining o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda musiqa madaniyati darslarini ilmiy-metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talablariga mos ravishda olib borishlik musiqa o'qituvchisi oldiga qo'yilgan dolzarb

vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. SHu bois umumta‘lim maktab «Musiqqa madaniyati» darslarining kasbiy standartini ishlab chiqishda fanning boshqa fanlardan o‘zining zamon taraqqiyoti rivoji bilan hamohang bo‘lgan xususiyatlari bilan farqlanishini aytib o‘tish joiz.

Har bir fanning o‘ziga xos xususiyati bo‘lishi tabiiydir. Musiqqa o‘qitishning ham o‘ziga xos tomonlari ko‘p, albatta. Bu uning tashkiliy tuzilishi va amaliy ijrochilik bilan bog‘liq ko‘rinishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. SHuning uchun darsning har bir faoliyat turida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin.

Musiqqa o‘qituvchisi kasbi insondan doimo o‘z shaxsini takomillashtirish, o‘zining musiqiy qiziqishlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi. Musiqqa o‘qituvchisi nafaqat o‘z mutaxassisligi «sirlarini» a‘lo darajada bilishi lozim, balki maktabda o‘quvchilarning mafkuraviy dunyoqarashlarini, tushuncha va tasavvurlarini shakllantirishda, estetik didini yuksak darajada o‘stirishda lozim bo‘lgan bilimlarga ega bo‘lishi shart.

Musiqqa madaniyati o‘qituvchisining kasbiy standartida quyidagi muhim jihatlar o‘z aksini topishi zarur;

- musiqqa asbobini yaxshi chalishi, yoqimli ovozda kuylashi (darsda gram yozuvlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi, ammo o‘qituvchining jonli ijrosi bolalarda katta hissiyot hosil qiladi);

- nozik musiqiy did va rivojlangan musiqiy eshituv qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- musiqiy-nazariy bilimlar doirasiga ega bo‘lishi;
- musiqiy asarlarni badiiy-pedagogik tahlil qila olishi;
- dirijyorlik malakalarini ko‘rsata olishi;
- musiqani boshqa badiiy fanlar bilan uzviy bog‘lay olishi;
- musiqqa ta‘limi va tarbiyasidagi yangi usul, vositalarni, zamonaviy texnologiyalarni egallashi va ulardan oqilona foydalana olishi katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda musiqqa muallimi kasbi, faoliyati, professional tayyorgarligiga bo‘lgan talablar ilmiy-pedagogik izlanishlarga asos bo‘lmokda. Bu borada taniqli musiqachi-pedagoglar, haqidagi esdaliklar, ularning pedagogik faoliyatlari natijalarini o‘rganishga qaratilgan bir qator izlanishlar ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon musiqqa o‘qituvchisining ijodiy faoliyatida pedagogik mahorat quyidagilarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- musiqqa tarbiyasida yangi usul va vositalarni izlashda, ularni an’anaviy usullar bilan mohirona bog‘lab olib borishda;
- hayot va musiqqa san’ati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsata olish va o‘rgatishda;
- musiqaning mazmuni va ma’nosini bolalarga etkazishda, fanlararo aloqani amalga oshirishda;
- musiqqa o‘qituvchisining o‘z ustida doimo ishlashi va ijodiy izlanishida.

O‘qituvchining yuqori professional tayyorgarligi musiqqa darslarining takomillashuvida hamda musiqqa san’atining tarbiyaviy imkoniyatlarini amalga oshirishda



katta ahamiyat kasb etadi.